



Ravshanov Lochinbek Urinovich,

*O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi
"Ilmiy tadqiqot" ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig'i,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, podpolkovnik*

HARBIY RAHBAR-KOMANDIRLAR FAOLIYATIDA IMIJNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola komandir imijini shakllantirishda psixologik bilimlarning ahamiyatiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa tizimidagi harbiy xizmatchilarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligini o'rganishni nazarda tutadi. Shuningdek, maqola mazmunida asosli manbalar orqali shaxsning individual qiyofasi, shaxsning psixologik qiyofasi, obrazning ijtimoiy-madaniy funksiyalarini psixologik tadqiq etish keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: komandir, harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy qiyofa, psixologik qiyofa, ijtimoiy-psixologik qiyofa, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy mutaxassis, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoyilik.

Аннотация. Данная статья посвящена месту психологических знаний в формировании имиджа командира и предполагает исследование профессиональной, научной, психологической подготовки военнослужащих в системе обороны Республики Узбекистан. Также в содержании статьи через обоснованные источники широко освещаются индивидуальный образ человека, психологический имидж человека, психологические исследования социокультурных функций имиджа.

Ключевые слова: командир, военнослужащий, воинская часть, воинская дисциплина, воинской имидж, психологический образ, социально-психологический имидж, воинская роль, воинское звание, военный профессионал, военный психолог, воинская деятельность, профессиональная преданность.

Annotation. This article is devoted to the place of psychological knowledge in the formation of the image of the commander and involves the study of professional, scientific, psychological training of military personnel in the defense system of the Republic of Uzbekistan. Also in the content of the article, through reasonable sources, the individual image of a person, the psychological image of a person, psychological studies of the socio-cultural functions of the image are widely covered.

Keywords: commander, serviceman, military unit, military discipline, military image, psychological image, socio-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional devotion.

**"Harbiy xizmatchining shakllanishida uning
yuqori kasbiy va intellektual salohiyati bilan bir
qatorda, psixologik holati ham muhim sanaladi..."**

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,

Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni

Kirish. Hozirgi murakkab davrda davlatlar tomonidan Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyatini yuksaltirish, kasbiy yetuk kadrlar

yetishtirish, professional harbiy mutaxassislar zaxirasini shakllantirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va aslahalar bilan ta'minlash qatorida kasbiy tayyorgarligi, ma'naviy-intellektual hamda psixologik holatini mustahkamlash eng ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida quyidagi:

mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish;

Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar shayligi va tayyorgarligi hamda o'quv moddiy-texnika bazasini yanada takomillashtirish;

oliy harbiy ta'lim muassasalariga nomzodlarni saralash va tanlab olish tizimini yanada takomillashtirish;

Mudofaa vazirligi qo'shinlarida rahbar lavozimlariga kadrlar zaxirasini yaratish tizimini rivojlantirish¹ kabi qator ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bu esa psixologiya sohasi mutaxassislarini Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlash hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish bo'yicha yangi yechimlar topishga undaydi.

Asosiy qism. Ma'lumki, imij tushunchasi fanlararo tadqiqotlarning predmeti sanalib, unda biror-bir subyektga tegishli ko'plab xulq-atvor sifatleri va tashqi qiyofa xususiyatlari aks etgan. Imij tushunchasi inglizchada "tasvir", "tashqi qiyofa" degan ma'nolarni anglatib, uning tarkibida ko'plab psixologik sifatlar o'z aksini topadi. Hozirga qadar ushbu muammo ko'plab soha mutaxassislari tomonidan o'rganilib kelayotgan bo'lsa-da, biroq hali-hanuz uni to'liq ifodalovchi yagona ta'rif mavjud emas. Garchi imij fenomenidan ilk bor siyosiy soha va reklama sohasidagi yetakchi tadqiqotchilar foydalanishgan bo'lsa-da, keyinchalik uni tadqiq etishda psixologiya, sotsiologiya va menejment kabi fanlar ham yetakchi sohalarga aylandi. Aynan shu sohalarda imij – biror kishiga tegishli ma'lumot, uning tashqi ko'rinishi, kasbiy muhim sifatleri, ijtimoiy mavqeyi, shaxsga tegishli umumiy madaniyat, xarakter xususiyatlari, xulq-atvor uslubi sifatida tushuntirilgan.

Bu holat jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida muammolarni samarali hal etuvchi, ijtimoiy xulq-atvor shakllari va imij tushunchasining

psixologik mohiyatini aniqlash ehtiyojini yanada oshirmoqda.

Shaxs imiji borasida tadqiqotlar olib borgan A.Y.Panasyukning ta'kidlashicha, imij insonning boshqalarda qoldiradigan umumiy taassuroti hisoblanib, unda shaxs o'z g'oyalarini boshqalarga qanday taqdim etishi, jamiyatda o'zini qanday tutishi, ishda va boshqa holatlarda qanday kiyinishi, qanday gapirishi, kasbiy faoliyatida nimalar qila olishi mumkinligi kabi qator imkoniyatlarida o'z aksini topadi². Tadqiqotchi Y.A.Petrov ham yuqoridagi yondashuvga qo'shilgan holda, "imij fenomenini shunchaki bir xususiyat emas, balki biror kishi yoki jamoaga tegishli ko'plab psixologik xususiyatlarni qamrab oluvchi psixologik hodisadir", deb ta'kidlab o'tadi³. Demak, yuqoridagi ta'riflardan xulosa qilib, keng jamoatchilikning tushunishiga oson qilib aytganda, imij – bu insonning faoliyatdagi yuksak mavqeyini tiklashga yordam beruvchi psixologik imkoniyatlar majmuyidir. Lekin, bizningcha, har bir faoliyatda insonning tashqi jozibadorligi zarur, ammo bu holat imijning hal qiluvchi tarkibiy qismi bo'la olmaydi.

Imijologiya sohasida yetakchi mutaxassis sanalgan V.M.Shepelning ta'kidlashicha, imij insonning qiyofasini, o'z shaxsini insonlar oldida, mamlakat oldida qanday ifoda eta olishidir. Shu bilan birga, u boshqalar tomonidan shaxsning eng ahamiyatli va muhim deb baholangan sifatleri majmuyi bilan ham xarakterlaydi⁴. Mazkur fikrga muvofiq, imij fenomeni mazmunida, shaxsning eng ahamiyatli sifatleri va uning boshqalar tomonidan e'tirof etilgan imkoniyatlari aks etishini xulosa qilishimiz mumkin.

Xronologik jihatdan qaralganda, imij tushunchasi ijtimoiy-tarixiy tushuncha sanalib, uni birinchi bor xorij tadqiqotchisi P.Bred o'z tadqiqotlarida tilga olgan. Muallifning so'zlariga ko'ra, imij – bu shaxsning boshqa odamlar tomonidan idrok etilish jarayoni sanalib, unda idrok etilayotgan insonning umumiy qiyofasi, nutqi, tashqi ko'rinishi, xatti-harakatlari, qobiliyati, axloqiy fazilatleri,

¹ "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида". Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

² Панасюк А.Ю. Имидж и формы психического отражения // Имиджология – 2005. – С.40.

³ Понятие «имидж» в сопоставлении с другими сходными понятиями // Известия Академии имиджологии / под ред. Е.А.Петровой. – М.: РИЦ АИМ, 2005.Т.1. – С.31-50.

⁴ Шепель В.М. Имиджология: секреты личного обаяния. – М.: Культура и спорт, ЮНИТИ, 1997. – 62 с.

xarakteri kabilar o‘rin olgan. Keng ma’noda esa shaxsning ichki va tashqi dunyosi imkoniyatlarini o‘zida mujassam etuvchi psixologik unsurdir⁵.

Yuqoridagi mulohazalardan farqli o‘laroq ijtimoiy psixologiya sohasi bo‘yicha taniqli mutaxassis G.M.Andreyevaning ta’kidlashicha, imij – bu idrok etilayotgan obyektning o‘ziga xos tasviri bo‘lib, unda obyekt yoki shaxsning ma’lum bir xususiyatlari ulug‘lanadi⁶. D.A.Leontev “imij” tushunchasining psixologik ta’rifiga o‘zgacha yondashib, uni “maxsus orttirilgan sifatlar va tashqi ko‘rinib turuvchi o‘zlashtirilgan, boshqalarning e’tiboriga tushuvchi xususiyatlardir”⁷, degan fikrni ilgari surgan. Biroq ayrim tadqiqotchilar imij muammosini tadqiq etishda o‘ziga xos qiyinchiliklar mavjudligini ham ta’kidlab o‘tadilar. Shunday ilmiy manbalar borki, unda “imij”, “obraz” tushunchalari etnomadaniy xarakterga ega bo‘lib, uning ilk bor qo‘llanish holati qadimgi hind mifologiyasiga borib taqalishi ta’kidlanadi.

Xorij tadqiqotchisi G.Dauleng bu borada shunday deydi: “Qadimgi hind buddistlari Braxma xudosi sharafiga uyushtirilgan marosimlarda, o‘z tanasi va bosh qismlarini turli ranga bo‘yaganlar. Ya’ni rang va shakllar ularni turli sehr va jodudan himoya qilishiga ishonganlar”⁸. Demak, mazkur ilmiy qarashga muvofiq “imij” nafaqat psixologik hodisa, balki etnomadaniy, antropologik va ijtimoiy-psixologik hodisa deb baholanishini ko‘rishimiz mumkin.

Tadqiqotchi V.Zinchenko tomonidan nashr etilgan “Katta psixologik lug‘at” kitobida yozilishicha, “imij – bu ommaviy ongda shakllangan va stereotipik xarakterga ega bo‘lgan tasvir, kimningdir yoki biror narsaning emotsional rangli tasviridir”⁹. Demak, muallif ta’biri bilan aytganda, imij boshqalar tomonidan biror kishi va uning faoliyatiga berilgan bahodir. Ushbu baho mazmunida

subyektning ichki va tashqi xususiyatlari ham aks etadi.

Mohiyatan imij obrazning bir turi bo‘lib, unda asosiy obyekt hodisa emas, balki subyekt sanaladi. Ya’ni imij obyektning o‘ziga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlari to‘plamini o‘zida mujassam etadi. Shu bilan birga, imij subyektning ongi, hissiyoti, faoliyati va harakatlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi A.Y.Koshmarov imijning tashqi belgisi sifatida “obro‘-e’tibor”ni e’tirof etib, u orqali shaxsning shaxsiy va kasbiy ideallari, rejalari hamda kelajakka qaratilgan istiqbolli harakatlarini aniqlash mumkinligini aytib o‘tadi¹⁰. Demak, ayrim xorij tadqiqotchilar “imij” tushunchasini shaxsning eng ilg‘or va namunali harakatlari bilan baholashga harakat qilgan.

Rus olimi T.F.Yefrimov tomonidan chop etilgan “Rus tilidan yangi lug‘at” kitobida ta’riflanishicha, “imij insonning tashqi ko‘rinishini, xulq-atvorini, muloqotini va eng muhim sifatlarini o‘z ichiga olgan, boshqalarga ta’sir qila olishiga imkon beruvchi qiyofa turidir”¹¹. Shunday ma’lumotlar uchraydiki, unda imij fenomeni shaxsning individual uslubi sifatida ta’riflangan. Masalan, I.A.Fedorovga ko‘ra, imij – bu manfaatdor shaxslar tomonidan yaratilgan shaxs, jamoa, muassasalar va boshqalar haqidagi taassurotlar yig‘indisidir¹². Ushbu yondashuvga muvofiq, taassurotlar ayrim shaxslarni, jamoani, muassasalar va vaziyatlarni xarakterlovchi individual uslub rolidagi psixologik jarayondir. Ba’zi bir olimlar guruhining izlanishlarida, imij va uning funksiyalari haqida so‘z borib, unda imijning qadriyatli va texnologik funksiyalari ajratib o‘tiladi. Qadriyatli funktsiya insonning eng yaxshi fazilatlari bilan tavsiflanib, uning tarkibiy qismlariga xushmuomalalik, xayrixohlik, ishonchli kayfiyat kabilar kiritilgan.

Psixologlardan I.Nefedova va Y.Vlasovalarning ta’kidlashicha, “imij – bu ichki sezgilarning namoyon bo‘lishi va atrofdagi odamlarni idrok etish stereotiplarini hisobga olgan holda insonning

⁵ Полли Берд. Продай себя. Тактика совершенствования вашего имиджа. – Минск: Амалфея, 1997. – С.63.

⁶ Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для вузов [Текст]/Г.М. Андреева. – Москва: Изд-во «Аспект Пресс», 2008. – С.29.

⁷ Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения / А.Н. Леонтьев. – М.: Книга по Требованию, 2012. – С.117.

⁸ Даулинг Грэм. Репутация фирмы: создание, управление и оценка эффективности / пер. с англ. – М.: Консалтинговая группа «ИМИДЖ-контакт», 2003. – С.64.

⁹ Зинченко В. Большой психологический словарь / ред. Б. Мещеряков, В. Зинченко. – М.: АСТ, 2009. – 816 с.

¹⁰ Кошмаров А.Ю. Телевизионный образ политического лидера как результат репутационного менеджмента // Психология как система направлений: Ежегодник. Вып. 2. 2002. Т. 9. – С. 3–17.

¹¹ Новый словарь русского языка / Под ред. Т.Ф.Ефремова. – М., 2000. – С. 590.

¹² Федоров И.А. Индивидуальный имидж как сторона духовной жизни общества: автореф. дис. ...док. социол. наук. – Тамбов, 1998. – 43 с.

o'zi haqidagi g'oyalaridir. Shuningdek, imij kamchiliklarni yashirish va shaxsning o'ziga xos afzal xususiyatlarini ko'rsata olishi kerak"¹³. Ushbu yondashuvga muvofiq, imij insonlarning hayotda bajaradigan hissiy, aqliy rollari asosida shakllanar ekan. Bizning nazarimizcha, imij tushunchasini bunday talqini muloqot psixologiyasida qo'llanadigan "Xulq-atvorning strategik modeli" tushunchasiga yaqin hodisadir. "Xulq-atvorning strategik modeli" deganda, biz insonning biror narsaga erishishi uchun muayyan vaziyatlarda o'zini tutishi, munosabat va muloqot o'rnatish uslubi kabilarni tushunishimiz lozim bo'ladi.

Umuman olganda, imijni tadqiq etishda umumpsixologik qonuniyatlar, ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklar mazmunidan kelib chiqish muhim hisoblanadi. Chunki aksariyat tadqiqotlar ayni bir shaxsga xos psixologik unsurlarni emas, rahbar va boshqaruv xodimlari faoliyatiga tegishli xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Ya'ni uning tahlilida omma ongi, mafkuraviy qarashlar, madaniyatlar, urf-odatlar kabilarni ham hisobga olish o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Rahbar shaxsi va uning faoliyati ijtimoiy-psixologiya fani o'rganadigan eng dolzarb masalalardan biri bo'lsa-da, biroq uning muvaffaqiyatli faoliyati, o'z qo'l ostidagi bo'ysunuvchilar bilan samarali ishlay olish tajribasi, oqilona qaror qabul qila olish malakasi, boshqalarning xulq-atvorini oldindan baholay olish qobiliyati, boshqalarga o'rnak bo'la olish xususiyati hamda ularning hurmatiga sazovor bo'la olish imkoniyati kabilar hozirgi boshqaruv psixologiyasida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan eng aktual masalalardan biridir.

Tadqiqotchi O.A.Budarinaning so'zlariga ko'ra, "imij"ning asosiy vazifasi – bu rahbar harakatlarini qo'l ostidagi bo'ysunuvchilarning maqsadlariga moslashtirishdir. Insonning xatti-harakatlari qanchalik aniq, tushunarli bo'lsa, uni boshqalar tomonidan tushunish shunchalik oson bo'ladi¹⁴. Demak, rahbar imiji – bu unga tegishli bo'lgan ko'plab o'ziga xos sifatning to'plamidir. Qolaversa, rahbar imiji tuzilishiga ko'ra, faqat

¹³ Нефедова И., Власова Е. Я и мой имидж. – М., 1994. – С.33.

¹⁴ Бударина О.А. Коммуникативные технологии формирования и продвижения имиджа муниципальной власти: Политологический анализ: Дис. . канд. политол. наук. – М., 2002. – С.103.

boshqaruvga zarur bo'luvchi eng muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashkil topib qolmasdan, balki uning tarkibida individual-psixologik xususiyatlar, psixofiziologik xususiyatlar, faoliyat uslubi, xarizmatizm, boshqaruv va ish yuritish uslubi kabi biror-bir faoliyat uchun shart sanalgan, psixologik jihatlardan ham tashkil topadi.

Bizningcha, harbiy rahbar shaxsiga tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyatlar, shuningdek, xarakterologik sifatlar, ularning sohadagi ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari va boshqaruv salohiyati o'ziga xos psixologik xususiyatlar sanalib, ularni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish "harbiy-kasbiy imij", "harbiy rahbar imiji" kabi masalalarga ilmiy oydinlik kiritish zaruratini yanada oshiradi. Chunki harbiy rahbarning kasbiy faoliyati bilan bog'liq mahalliy tadqiqotlar hali aytarli darajada ko'p bo'lmasa-da, biroq ushbu masalada keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarga zarurat juda yuqori hisoblanadi.

Tadqiqotchi A.O.Yeroninning so'zlariga ko'ra, rahbar imiji muammosi menejment va ijtimoiy-psixologiya sohalarida kengroq o'rganilgan bo'lsa-da, biroq imijni mudofaa tizimida faoliyat olib borayotgan rahbarlar faoliyati bilan o'rganish zamonaviy harbiy psixologiya ma'lumotlarini mazmunan boyitishga keng xizmat qiladi¹⁵. Demak, imijni harbiy rahbarlar obyektida o'rganish, mudofaa salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq yechimlarga javob topishi ehtimoldan holi emas.

Tadqiqotchi A.Y.Ansupovaning yozishicha, harbiy boshqaruv faoliyati kuchli mudofaa maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi kasbiy faollik, innovatsion tajriba, tashabbuskorlik va jamoaviy harakatlarni amalga oshirishning yangi samarador yo'llari va usullarini qo'llay olish holatlarning mazmunini aks ettiradi¹⁶. Ya'ni ijtimoiy-psixologik jihatdan qaralganda, harbiy sohada rahbarlik faoliyati doimiy ravishda yuzaga keladigan murakkab vazifalar va topshiriqlar bilan xarakterlanadi.

¹⁵ Еронин А.О. «Социально-психологические компоненты позитивного имиджа среднего профессионального образования» // Ученые записки Российского государственного социального университета. – 2013. – №1 (ИЗ) – С.156–158.

¹⁶ Анцупов А.Я., Помогайбин В.П., Пошивалкин О.А. Методологические проблемы военно-психологических исследований: обзор диссертации XX век. – М.: Современный Гуманитарный Институт, 2000. – С.162.

Professor A.G.Rostunovning ta'kidlashicha, harbiy faoliyat bu – Vatanni himoya qilish faoliyatidir. Unda ko'plab tarkibiy qismlar mavjud. Avvalo, bu ikkita asosiy turdagi faoliyatni, ya'ni jangovar vaziyatlarni va oddiy sharoitlarni nazarda tutadi. Harbiy faoliyat esa urush maqsadlariga erishishdagi ko'plab harbiy xizmatchilar faoliyatidir¹⁷.

Ta'kidlash joizki, jangovar harakatlar o'zining maqsad hamda vazifalari, shartlari, vositalari, qiyinchiliklari va psixologik mazmuniga ko'ra juda aniq sanaladi. Ya'ni bu harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog'lar, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xodimlarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Bunday murakkab vazifalar o'z-o'zidan jangda hal qilinadigan, hayotga xavf tug'diradigan, odamlar va jihozlardagi yo'qotishlarga hamda turli xil muhtojlik va noqulayliklar bilan bog'liq bo'lgan jangovar faoliyatning ruhiy tarkibi va tuzilishiga ta'sir qilishi tabiiy. Urush olib borish vazifalarni aniq bajarishni, ya'ni axloqiy va huquqiy mas'uliyatni yuqori darajada oshirishni talab qiladi. Bunday harakatlar esa harbiy xizmatchilar shaxsida haddan ziyod aqliy va jismoniy zo'riqlashlarni yuzaga keltiradi.

Harbiy xizmatchilarning harbiy harakatlarida ham qator psixologik sabablar mavjud, bular: ehtiyojlar, his-tuyg'ular, istak, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar va hokazo. Yuqorida ta'kidlangandek, har qanday insoniy faoliyat o'z maqsadiga ega¹⁸. Demak, davlat darajasidagi harbiy harakatlar boshlanishining sababi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu yerda asosiy sabab mamlakatning yaxlitligi va xavfsizligiga nisbatan tahdidning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bunday harakatlar mazmuni harbiy harakatlarning sodir bo'lishida harbiy xizmatchilar faoliyatining namoyon bo'lishini ham nazarda tutadi.

Tadqiqotchi V.Suvorov va A.Chebanlarning ta'kidlashicha, jang uchun eng muhim zaruriyat bu – insonning omon qolish istagidir. Bu o'z-o'zini

himoya qilish uchun normal, genetik jihatdan esa aniq qonuniyat sanaladi. Ammo u barcha odamlar uchun turli xil yo'llar bilan namoyon bo'ladi hamda biror shaxs va ijtimoiy muhit uchun turli xil oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, bir kishi faol va maqsadga muvofiq harbiy texnika va jangovar usullarni boshqaradi, chunki u urushda yaxshiroq tayyorlangan odam omon qolishi mumkinligini yaxshiroq tushunadi. Shu bilan birga, jang vaqtida boshqa shaxs xavfli vaziyatlardan qochishga va o'z safdoshlarining orqasiga yashirinishga harakat qiladi, ya'ni o'zining qo'rqqoligini ko'rsatadi¹⁹. Bu borada quyidagi savollarni izohlash kerak bo'ladi: agar o'zini o'zi himoya qilish mexanizmi biologik, kodlangan va oqilona bo'lsa, unda nima uchun tarixda minglab qahramonlar va vatan uchun o'zini qurbon qilgan shahidlar tilga olinadi, bunday shaxslarning boshqalar uchun o'zlarini qurbon qilishiga nima sabab bo'lgan? Aslini olganda, ijtimoiy shaxs bo'lish uchun insonning nafaqat biologik, balki ijtimoiy ehtiyojlarini ham e'tiborga olish o'rinli sanaladi.

Ilmiy jihatdan qaralganda, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki maxsus sharoitlarga bog'liq bo'lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharaflari burchidir. Armiya esa har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o'z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni, shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Dunyoda harbiy xizmatchilarning kasbiy, intellektual va axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishga hamda ularning psixologik holatini tadqiq etishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. "Dunyoning eng qudratli armiyalari" reytingini aniqlashda, davlatlar armiyasining psixologik mudofaa faoliyati va harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi²⁰. Demak, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligi, psixologik xususiyatlari, jangovar holatini ta'minlovchi psixologik komponentlari va harbiy xizmat faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shu o'rinda,

¹⁷ Ростунов А.Г. Психологическая подготовка к службе в армии. – Минск: Народная Авеста, 1999. – С. 64

¹⁸ Прохвощев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С.132.

¹⁹ Суворов В., Чебан А. Социально-психологический портрет воинского коллектива // Войсковой вестник. – Москва, 2005. – №3. – С. 40-65.

²⁰ <http://www.globalfirepower.com>.

komandir imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq etish muammo yechimini aniqlashda eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Keyingi yillardagi harbiy faoliyatga oid tadqiqot ishlarida harbiy rahbar – komandirning shaxsiy-kasbiy fazilatlarini belgilovchi psixologik omillar, ya'ni komandir imijining psixologik jihatlarini o'rganish borasidagi ilk ilmiy tadqiqotlar xorij psixolog olimlari izlanishlarida o'z aksini topgan bo'lsa-da, jahon harbiy san'atiga bebaho hissa qo'shgan, buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohirqiron Amir Temur o'z "Temur tuzuklari"da davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etishda rahbar va amaldorlarning ruhiy sifatlarini e'tirof etib, ular qattiqqo'l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil, insonparvar, halol va pok bo'lishini ko'rsatgan. Bo'lajak sarkardalarni saralab, lavozimlarga qo'yishda esa ularning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, tinchliksevarlik, sabr-toqatlilik, adolatparvarlik, ko'tarinki ruhiy holatiga, ziyrakligiga, malakasi va odamlar bilan murosqa qilish fazilatlariga alohida e'tibor bergan²¹. So'z o'rnida, Amir Temur o'sha davr faoliyatida hozirgi zamon psixologiyasining ijtimoiy-psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, etnopsixologiya, operativ faoliyat psixologiyasi va kasb psixodiagnostikasi qonuniyatlaridan foydalanganini ko'rish mumkin.

Harbiy rahbar komandir faoliyati davomida ko'plab qarorlar qabul qilishiga to'g'ri keladi, bu – harbiy majburiyat taqozosi. Qaror qabul qilish jarayonida harbiy rahbar-komandirlar yuqori mental xususiyatlarga tayanadi. Qaror qabul qilishdagi yangilash va ikkilanishga yo'l qo'yib bo'lmasligi lozim hisoblanadi. Shuning uchun qaror qabul qilish ko'p jihatdan komandirning va ushbu jarayonga hissa qo'shayotgan harbiy mutaxassislarning qobiliyatiga ham bog'liq.

Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan empirik tadqiq etishda ularning boshqaruvda qaror qabul qilish jarayoni muhim ekanligini inobatga olib, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hukmronlikka intilish shkalasi razvedkachi bo'linmalar komandirlarida 160,72, motoo'qchi bo'linmalar komandirlarida 141,52 va artilleriya bo'linmalari komandirlarida 94,64 kabi darajalar bilan o'zaro

yuqori farqlarni qayd etgan. Keyingi shkala – muammoli vaziyatlarda o'zini tutish bo'yicha razvedkachi bo'linmalar komandirlarida 115,51, motoo'qchi bo'linmalar komandirlarida 154,01 va artilleriya bo'linmalari komandirlarida 127,17 kabi natijalarni aks ettirgan va farqlar o'rta darajada kuzatilgan. Qaror qabul qilish uslubi shkalasiga ko'ra, razvedkachi bo'linmalar komandirlarida 142,51, motoo'qchi bo'linmalar komandirlarida 156,68 va artilleriya bo'linmalari komandirlarida 106,48 kabi darajalar bilan yuqori farqlarni qayd etgan.

Harbiy rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasini yaratishda muhim bo'lgan, boshqaruvda qaror qabul qilish xususiyatlari tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalarga ko'ra, tezkor yoki uzoq muddatli subyektiv nazorat qobiliyati o'zini psixologik tartibga solishning asosiy sharti hisoblanmoqda. Harbiy rahbar bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar faoliyatini tartibga solish yuzasidan qaror qabul qilishda quyidagi psixologik jihatlarga e'tibor qaratish lozim bo'lar ekan:

birinchidan, harbiy rahbar bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilarning hushyorligi va shaxsiy fazilatlarini yaxlit ifoda etish orqali;

ikkinchidan, bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilarda ichki nazoratni, ya'ni imkoniyatlarini prognozlashga yo'naltirib, o'ziga ishonch hissini uyg'otish orqali;

uchinchidan, harbiy rahbar qo'l ostidagilar bilan ishlash jarayonida o'zi uchun muhim bo'lgan tajriba to'plash hisobida boshqaruv faoliyati uchun zarur xususiyatlarni tarkib toptirish orqali (bunday psixologik jihatlar harbiy rahbarning kognitiv imkoniyatlarini o'sishi hisobiga tezkor va ishonchli qaror qabul qilishga o'rgatadi. Emotsional barqarorlik hisobidan muammoli vaziyatlarda o'zini tutish uslubiga ega bo'lar ekan);

to'rtinchidan, harbiy rahbar internal lokus nazorat, o'ziga ishonch va imkoniyatlarni to'g'ri baholashga o'rgatishi hisobidan operativ qaror qabul qilish hamda murakkab sharoitlarda o'zida regulativlikni tarkib toptirish orqali.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mudofaa vazirligi tizimidagi rahbar imijining ijtimoiy-psixologik konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biri quyi bo'g'in harbiy rahbarlarni yuqori lavozimlarga tayinlashda Kasbiy saralash bo'limlari tomonidan lavozimlarga munosib nomzodlarni saralab olishda, ularning kommunikativ (diqqatlilik, kuzatuvchanlik,

²¹ Муқимов З. "Амир Темур тузуклари" тарихий-ҳуқуқий тадқиқот. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 б.

sezgirlik, kuchli xotira, amaliy tafakkur, kreativlik, kuchli intuitsiya, sensor ustunlik, tanqidiy tafakkur), motivatsion (emotsional intellekt, sabr-bardoshlilik, qaror qabul qilish, hissiy barqarorlik, matonatlilik, mehnatsevarlik), hissiy-irodaviy (muvaffaqiyatga intilish, rejalilik, tartiblilik, maxsus qobiliyatlar, talabchanlik, o'zini o'zi rivojlantirish, ilmiylik,

tavakkalchilik) va kognitiv (muloqotchanlik, xushmuomalalik, nutqiy ravonlik, murosasozlik, komformizm, qadriyatlilik, verbalizatsiya, muloqot madaniyati, mimika va jest) kabi imijning ijobiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanganligini inobatga olgan holda amalga oshirishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида». Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон Фармони.
2. Панасюк А.Ю. Имидж и формы психического отражения // Имиджелогия – 2005. – С.40.
3. Петров Е.А. Понятие «имидж» в сопоставлении с другими сходными понятиями // Известия Академии имиджелогии / под ред. Е.А.Петровой. – М.: РИЦ АИМ, 2005.Т.1. – С.31-50.
4. Шепель В.М. Имиджология: секреты личного обаяния. – М.: Культура и спорт, ЮНИТИ, 1997. – С.62.
5. Берд П. Продай себя. Тактика совершенствования вашего имиджа. – Минск: Амалфея, 1997. – С.63.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. Учебник для вузов [Текст] / Г.М. Андреева. – Москва: Изд-во «Аспект Пресс», 2008. – С.29.
7. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения / А.Н.Леонтьев. – М.: Книга по Требованию, 2012. – С.117.
8. Даулинг Г. Репутация фирмы: создание, управление и оценка эффективности / пер. с англ. – М.: Консалтинговая группа «ИМИДЖ-контакт», 2003. – С.64.
9. Зинченко В. Большой психологический словарь / ред. Б. Мещеряков, В.Зинченко. – М.: АСТ, 2009. – С.816.
10. Кошмаров А.Ю. Телевизионный образ политического лидера как результат репутационного менеджмента // Психология как система направлений: Ежегодник. Вып. 2. 2002. Т. 9. – С. 3 – 17.
11. Ефремов Т.Ф. Новый словарь русского языка / Под ред. – М., 2000. – С. 590.
12. Федоров И.А. Индивидуальный имидж как сторона духовной жизни общества: автореф. дис... д-ра. социол. наук. – Тамбов, 1998. – С.43.
13. Нефедова И., Власова Е. Я и мой имидж. – М., 1994. – С.33.
14. Бударина О.А. Коммуникативные технологии формирования и продвижения имиджа муниципальной власти: Политологический анализ: Дис... канд. политол. наук. – М., 2002. – С.103.
15. Еронин А.О, «Социально-психологические компоненты позитивного имиджа среднего профессионального образования» // Ученые записки Российского государственного социального университета. 2013. – №1 – С.156.
16. Анцупов А.Я. Методологические проблемы военно-психологических исследований: обзор диссертации XX век. – М.: Современный Гуманитарный Институт, 2000. – С.162.
17. Ростунов А. Г., Куцыбович Л. А., Елях Г. В. Психологическая подготовка к службе в армии. – Минск: Народная Авеста, 1999. – С. 64.
18. Прохвощев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С.132.
19. Суворов В., Чебан А. Социально-психологический портрет воинского коллектива // Войсковой вестник. – Москва, 2005.– №3. – С. 40-65.
20. <http://www.globalfirepower.com>.
21. Мукимов З. “Амир Темур тузуклари” тарихий-хукукий тадқиқот. – Самарқанд: СамДУ, 2008. – 131 б.